

III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2024 yil yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiyligi hajmi 15 102,2 mlrd.so'mni yoki 2023 yilning mos davriga nisbatan 103,6 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari hajmi 5 476,7 mlrd.so'mni (105,8 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari hajmi 9 336,5 mlrd.so'mni (102,4 foiz), qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 137,1 mlrd. so'mni (106,2 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 60,9 mlrd. so'mni (90,3 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,6 mlrd.so'mni (79,1 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 90,4 mlrd.so'mni (100,7 foiz) tashkil qildi.



15 102,2

Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd. so'm



14 950,9

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar



90,4

O'rmon xo'jaligi



60,9


Baliqchilik xo'jaligi

**Buxoro viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)
hajmining taqsimlanishi, foizda
(2024 yil yanvar-iyun)**

	<i>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlar hajmi</i>		<i>Aholi jon boshiga, (ming so‘m)</i>
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2023 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, o‘sish sur’ati % da</i>	
Buxoro viloyati	15 102,2	103,6	7 363,8
Buxoro sh.	176,2	106,6	595,5
Kogon sh.	51,6	100,2	794,8
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	1 764,6	103,5	9 852,0
Vobkent	1 280,1	100,2	8 578,6
Jondor	1 958,5	102,0	10 525,6
Kogon	977,7	100,6	11 512,9
Olot	1 197,4	104,9	11 440,4
Peshko‘	1 408,9	107,9	10 710,7
Romitan	1 301,6	107,9	8 579,6
Shofirkon	1 301,7	102,5	6 969,8
Qorako‘l	1 609,9	103,0	9 343,4
Qorovulbozor	429,9	105,0	21 464,4
G‘ijduvon	1 644,1	102,9	5 079,7

**2024 yil yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o'sish sur'atlari**



Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Peshko' (107,9 foiz), Romitan (107,9 foiz), Buxoro shahri (106,6 foiz), Qorovulbozor (105,0 foiz) tumanlarida kuzatildi. Vobkent (100,2 foiz) va Kogon (100,6 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2023 yil mos davriga nisbatan 103,6 foizni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 105,8 foizni va chorvachilik mahsulotlari 102,4 foizni tashkil qildi.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va
chorvachilikning ulushi, foizda**




**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, foizda**



2024 yil yanvar-iyun oylarida 14 813,2 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 5 476,7 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 37,0 foizi dehqonchilik, 9 336,5 mlrd. so‘mga teng qismi yoki 63,0 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2024 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda Qorovulbozor, Jondor tumanlarida va Buxoro shahrida asosan dehqonchilik sohasining ancha rivojlanganligini ko‘rsatdi. Ushbu tumanlarda jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 59,6 – 40,3 foizini dehqonchilik mahsulotlari tashkil etadi. Shuningdek, Kogon, Olot, Qorako‘l tumanlarida asosan chorvachilik sohasining ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. Ushbu hududlarda jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 71,2 68,8 foizini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.


**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining
xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, foiz**



Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 75,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 20,3 foizi fermer xo‘jaliklariga, 4,3 foizi qishloq xo‘jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi hududlar kesimida, foizda



Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

2024 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qorovulbozor (53,4 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Olot (85,0 foizi) tumanlari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qorovulbozor (14,0 foizi) tumanida qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Kogon (13,0 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor (32,6 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Shofirkon (1,1 foizi) tumanlarida qayd etildi.



Dehqonchilik

2024 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarning hajmi 5 476,7 mlrd.so‘mni yoki 2023 yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 37,0 foizni tashkil kildi.

Viloyatda 2024 yil 1 iyul holatida davlat xirmoniga 50,3 ming tonna g‘alla topshirildi. Bundan tashqari kelgusi yil hosili uchun 19,4 ming tonna urug‘lik don ham tayyorlandi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining salmog‘i yuqori bo‘lmoqda, jumladan jami yetishtirilgan kartoshkaning 84,6 foizi, sabzavotning 85,2 foizi, poliz mahsulotlarining 36,5 foizi, uzumning 54,3 foizi va mevaning 59,8 foizi ular hissasiga to‘g‘ri keldi.

Hosilni yig‘ib olish




2024 yilning yanvar-iyun oylarida jami don 444 194 tonna (2023 yil shu davriga nisbatan 4,5 foizga ko‘p), shu jumladan, boshoqli don 442 672 tonna, shundan bug‘doy 439 161 tonna o‘rib olindi.

Kartoshka 172 804 tonna (1,3 foizga ko‘p), sabzavot 276 505 tonna (2,6 foizga ko‘p), poliz 23 632 tonna (1,3 foizga ko‘p), meva 134 712 tonna (13,0 foizga ko‘p), uzum 6 399 tonna (6,1 foizga ko‘p) yig‘ib olindi.

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati

Asosiy turdagagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi, % hisobida




2024 yilning yanvar-iyun oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Fermer xo‘jaliklari		Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o‘sish sur’ati, foizda	ming tonna	o‘sish sur’ati, foizda	ming tonna	o‘sish sur’ati, foizda
Don	361,0	105,1	46,9	101,5	36,3	103,2
Kartoshka	23,7	103,8	146,2	101,0	2,9	97,6
Sabzavotlar	30,7	102,3	235,5	101,8	10,3	127,6
Poliz	14,9	103,6	8,6	100,7	0,1	27,2
Mevalar va rezavorlar	53,7	139,4	80,5	100,3	0,5	119,6
Uzum	2,9	112,7	3,5	101,1	0,02	111,8

2024 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Don (tonna)




Kartoshka (tonna)



Sabzavotlar (tonna)



Poliz (tonna)



Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati

Mevalar va rezavorlar (tonna)

Kogon sh.	14,5
Qorovulbozor	942,1
Buxoro sh.	975,1
Kogon	3 717,8
Olot	5 313,0
Qorako'l	10 393,5
Romitan	12 507,4
G'ijduvon	13 409,0
Shofirkon	13 468,5
Vobkent	15 531,9
Peshko'	17 358,8
Buxoro	19 898,7
Jondor	21 181,7



Uzum (tonna)

Kogon sh.	2,3
Qorovulbozor	16,4
Kogon	111,0
Qorako'l	123,4
Vobkent	137,4
Olot	167,9
G'ijduvon	268,8
Romitan	342,2
Peshko'	723,2
Shofirkon	1 001,9
Buxoro	1 152,3
Jondor	2 352,1



Chorvachilik



2024 yil yanvar - iyun oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 336,5 mlrd.so'mni yoki 2023 yilning mos davriga nisbatan 102,4 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 63,0 foizni tashkil etdi.


2024 yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 135 059 tonna go'sht (2023 yil yanvar - iyunga nisbatan 0,8 foizga ko'p), 487,4 ming tonna sut (1,5 foizga ko'p), 237,4 mln.dona tuxum (2,0 foizga ko'p), 2 506 tonna jun (3,0 foizga ko'p), 410,5 ming dona qorako'l teri (o'tgan yilga nisbatan 3,7 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.

**2024 yil yanvar-iyun oylarida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha
asosiy turdagи chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<i>Barcha toifadagi xo‘jaliklar</i>		shu jumladan:					
			<i>fermer xo‘jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo‘jaliklari</i>		<i>qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalg oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>miq- dori</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz</i>	<i>miq- dori</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz</i>	<i>miq- dori</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz</i>	<i>miq- dori</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz</i>
Go‘sht tirik vaznda, <i>tonna</i>	135 059	100,8	8 482	106,9	119 674	101,5	6 903	84,4
Sut, <i>tonna</i>	487 362	101,5	32 183	103,4	450 535	101,0	4 644	149,3
Tuxum, <i>ming dona</i>	237 412	102,0	46 992	107,9	128 355	95,6	62 065	112,8
Jun, <i>tonna</i>	2 506	103,0	361	105,2	2 004	101,6	141	119,5
Qorako‘l teri dona	410 458	103,7	48 647	105,3	337 895	101,4	23 916	146,5

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taxlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go‘shtning umumiylajmidan 88,6 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 92,4 foizi, tuxumning 54,1 foizi, junning 80,0 foizi, qorako‘l terining 82,3 foizi ham dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Asosiy turdagи chorvachilik mahsulotlarini
ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi**




*Buxoro viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

**2024 yil 1 iyul holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


	<i>Barcha toifadagi xo‘jaliklar</i>	<i>shu jumladan:</i>							
		<i>fermer xo‘jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>			
		<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, foiz</i>
Yirik shoxli qoramollar	1 341,7	102,5	112,0	107,0	1 207,0	101,8	22,7	117,0	
<i>shu shumladan sigirlar</i>	433,8	101,8	38,9	105,4	389,0	101,3	5,9	115,7	
Qo‘y va echkilar	2 436,9	102,2	427,2	106,7	1816,3	100,9	193,4	105,3	
Parrandalar	7 716,3	104,2	1 861,8	109,0	2 928,4	100,7	2 926,1	104,8	

**Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar
kesimida taqsimlanishi**

Go‘sht (ming t.)



Sut (ming t.)




Tuxum (mln.dona)


Kogon sh.	0,2
Buxoro sh.	0,9
Qorovulbozor	4,6
Peshko‘	10,6
Romitan	12,2
Shofirkon	14,4
Olot	14,9
Vobkent	15,0
G‘ijduvon	21,8
Buxoro	21,8
Qorako‘l	22,7
Kogon	40,4
Jondor	57,9



Ovlangan baliq (tonna)



Pilla (tonna)



*Buxoro viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

2024 yil 1 iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz</i>
Yirik shoxli qoramol	1 341,7	102,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	112,0	107,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 207,0	101,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	22,7	117,0
shundan sigirlar	433,8	101,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	38,9	105,4
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	389,0	101,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,9	115,7
Qo'y va echkilar	2 436,9	102,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	427,2	106,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 816,3	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	193,4	105,3
Otlar	7 897	107,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	3 916	118,5
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 778	96,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 203	105,1
Parrandalar	7 716,3	104,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	1 861,8	109,0

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz</i>
--	------------------	---------------------------------

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari 2 928,4 100,7

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar 2 926,1 104,8

2024 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	<i>Miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz</i>
--	----------------	---------------------------------

Go‘sht (tirik vaznda), ming tn. 135,1 100,8

shu jumladan:

Fermer xo‘jaliklari 8,5 106,9

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari 119,7 101,5

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar 6,9 84,4

Sut, ming tn. 487,4 101,5

shu jumladan:

Fermer xo‘jaliklari 32,2 103,4

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari 450,5 101,0

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar 4,7 149,3

Tuxum, mln. dona 237,4 102,0

shu jumladan:

Fermer xo‘jaliklari 47,0 107,9


Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari 128,4 95,6

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar 62,0 112,8

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2024 yil 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 341,7 ming boshni, shu jumladan sigirlar 433,8 ming boshni, qo'y va echkilar 2 436,9 ming boshni, ot 7 897 boshni, parrandalar 7 716,3 ming boshni tashkil etdi. 2023 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 32,4 ming boshga (2,5 foizga), shu jumladan sigirlar 7,7 ming boshga (1,8 foizga), qo'y va echkilar 53,2 ming boshga (2,2 foizga), otlar 554 boshga (7,5 foizga), parrandalar 309,4 ming boshga (4,2 foizga) ko'paydi.


Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi, foizda




2024 yil 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar 8,3foizi fermer xo‘jaliklariga 90,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiyligi sonidan 17,5 foizi fermer xo‘jaliklariga, 74,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 8,0 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, shuningdek parrandalar umumiyligi sonidan 24,1 foizi fermer xo‘jaliklariga, 38,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 37,9 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

**2024 yil 1 iyul xolatiga shahar va tumanlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shu jumladan: sigirlar (ming bosh)



Qo‘ylar va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Fermer xo‘jaliklari. 2024 yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 3 000,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 20,3 foizni tashkil etdi.

2024 yil 1 iyul holatida fermer xo‘jaliklarida 112,0 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 38,9 ming bosh sigir, 427,2 ming bosh qo‘y va echkilar, 1 861,8 ming bosh parrandalar mavjud bo‘lib, 2023 yil 1 iyul holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 7,0 foizga ko‘p, qo‘y va echkilar 6,7 foizga, parrandalar 9,0 foizga ko‘paygan.

**2024 yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan
asosiy turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

	<i>2023 yil</i>		<i>2024 yil</i>		<i>o‘sish sur’ati, foiz</i>
	<i>tonna</i>	<i>ishlab chiqarish umumiyl hajmidagi ulushi, foiz</i>	<i>tonna</i>	<i>ishlab chiqarish umumiyl hajmidagi ulushi, foiz</i>	
Don jami	343 562	80,8	360 947	81,2	105,1
Kartoshka	22 798	13,4	23 653	13,7	103,8
Sabzavot	30 050	11,2	30 742	11,1	102,3
Poliz jami	14 390	61,7	14 910	63,1	103,6
Mevalar	38 550	32,3	53 737	39,9	139,4
Uzum	2 580	42,8	2 907	45,4	112,7
Go‘sht, tirik vaznda	7 933	5,9	8 482	6,3	106,9
Sut	31 137	6,5	32 183	6,6	103,4
Tuxum, ming dona	43 562	18,7	46 992	19,8	107,9
Jun	343	14,1	361	14,4	105,2
Qorako‘l teri, <i>dona</i>	46 198	11,7	48 647	11,9	105,3
Pilla	525,9	19,4	133,9	4,2	25,5
Ovlangan baliq	812,1	31,3	836	35,6	102,9

2024 yil yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan tirik vaznda 8 482 tonna go‘sht (2023 yil yanvar - iyunga nisbatan 6,9 foizga ko‘p), 32,2 ming tonna sut (3,4 foizga ko‘p), 47,0 mln.dona tuxum (7,9 foizga ko‘p), 361 tonna jun (5,2 foizga ko‘p), 48,6 ming dona qorako‘l teri (o‘tgan yilga nisbatan 5,3 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo‘jaliklarida, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo‘jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko‘p yillik yosh ko‘chatlarni o‘stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o‘zgarishi yig‘indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o‘stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o‘z ichiga oladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik - ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko‘rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko‘paytirish va davolash harajatlari hisobga olinadi.

O‘rmon xo‘jaligi – o‘rmon va o‘rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. O‘rmon xo‘jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o‘rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong‘inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O‘rmon xo‘jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag‘ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko‘chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o‘suvchi qo‘ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong‘oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliq xo‘jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko‘paytirish va yaxshilashni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yig‘ilgan yalpi hosili qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida asosiy va takroriy, bog‘larning qator oralaridagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yig‘ib olingan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari - ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektidir.

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko ‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni - xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagи chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish - so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagи qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish - yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shtan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish - barcha turdagи parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish - xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.